

O'RTA OSIYO DARYOLARINING XO'JALIKDAGI AHAMIYATI

Xakimov Muhammadali

Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 3-bosqich 301- guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta osiyo o'lkasidagi daryolar ularning suv hajmi va xo'jalikda sohalaridagi ahamiyati va ulardan foydalanish va foydalanishdagi xatoliklar to'g'rida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Ekstensiv sug'orish, intensiv sug'orish, gidroenergetika, gidrouzel, monokultura ekinlari.

O'rta osiyo qadimdan isonlar yashab dehqonchilik bilan shug'ullana boshlangan mintaqalardan biri hisoblanadi. O'lkada eng yirik daryolardan Amudaryo va Sirdaryo daryolari to'liq ravishda qolgan daryolardan qisman foydalanib kelinadi. O'rta osiyo tabiiy geografik o'lkasi Yevrosiyo materigining qoq o'rtasida okeanlar va dengizlardan ancha uzoqda joylashganligi sababi xo'jalikda asosan darolardan foydalanadi. O'rta osiyoda 12 mingga yaqin daryo bor. Ular o'lkada juda notekis joylashgan bo'lib, 10 mingdan ortiq daryolari kichik bo'lib ular asosan mintaqaning tog'li qismlarida joylashgan. Qolgan daryolar esa asosan tekislik qismida joylashgan bo'lib, ularning boshlang'ich qismi ham tog'dan boshlanadi. Daryolar tog'oldi tekisliklariga chiqishi bilan suvi kamaya boshlaydi, chunki ular suvi bu yerda qishloq xo'jaligida sug'orishga sarflanadi bundan tashqari suv resurslaridan saodatda maishiy ehtiyojlar, sanoat, sug'orish, energiya, baliqchilik, transport, chorvachilik turizm, sport va boshqalarda ham foydalaniladi O'rta Osiyo hududida joylashgan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston yosh mustaqil davlatlar Orol dengizi havzasiga kiruvchi suv manbalaridan foydalanadi. Ularga, asosan, Amudaryo va Sirdaryo havzalari va kichik daryo havzalari kiradi. Ularning yillik umumiy suv resurslari 119 (shu jumladan, Amudaryo havzasiniki 78, Sirdaryoniki 41) km.kub.ni tashkil qiladi. Mavjud suv resurslari O'rta Osiyodagi mustaqil davlatlar o'rtasida to'la bo'lingan. Bu miqdordan 60 foizga yaqini (yoki 71 km³) O'zbekiston Respublikasiga to'g'ri keladi. Birgina O'zbekistonning o'zida 4.25 mln. gektar sug'oriladigan yerlarga yiliga 60 kub.km.dan ko'proq suv sarflanadi. Shunday qilib O'zbekistonda har bir gektar sug'oriladigan maydonga

14 ming metr.kub suv beriladi. Ammo xalq xo'jaligida sug'orishning ekstensiv usulidan ko'proq foydalanilganligi sababli buning natijasida suvning xossa va miqdoriga putur yetmoqda, suv resurslari behuda sarflanmoqda, ortiqcha foydalanilmoqda. Bundan tashqari suv faqatgina sug'orishga emas yana bir qancha tarmoqlarda ham foydalaniladi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda noto'g'ri tutilgan yo'l. Shu narsa regionning tabiiy sharoitiga, xo'jaligiga, ijtimoiy munosabatlariga uzoq vaqt davomida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini noto'g'ri joylashtirish. Bunda asosiy kamchilik suv talab, birinchi galda sholi maydonlarining kengaytirilishi, monokulturaga, ayniqsa, paxtaga keng yo'l berilishi. Kam hosil, melioratsiya ishlarini o'tkazish qiyin bo'lgan yerlarni o'zlashtirish (Farg'ona adirlarini, tog'oldi toshloq yerlari, suv oqimi bo'lmagan pastliklari). Sug'orish tizimlarini qurishda loyiha ishlarini olib borishning, ularni qurish va eksplataatsiya qilishning sifatsizligi. Sug'orish me'yorlarining balandligi. 1980-yilda Qozog'istonda normadagiga nisbatan sug'orishga sarf qilingan suv 201% ni, Qirg'izistonda 122% ni, O'zbekistonda 164%, Tojikistonda 158%, Turkmanistonda 167% ni tashkil etgan. Sug'orish me'yorlarining yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi qabul qilingan sug'orish normalarini belgilashda tuproqlarning va ekinlarning ko'p xususiyatlari inobatga olinmaganligi, sug'orish me'yorlari, asosan, eng ko'p suv talab qiladigan ekinga mo'ljallanganligi ham suv resurslarining kamayishiga sabab bo'lmoqda. O'lka xo'jaliklarining alternativ rivojlanishiga va uning tabiiy sharoitiga ta'siri bashoratining yo'qligi. Orol dengizi atrofida vujudga kelayotgan muammolarning yetarlicha muhokama qilinmaganligi. Ammo hozirgi kunda insonlarning suv resurslarida betartib foydalanishi oqibatida daryolarning suv hajmi kamayib ketmoqda. O'rta osiyoning yirik daryosi hisoblangan birgina Amudaryo daryosining suvlari to'laligicha sug'orish uchun sarflanadi. O'zbekiston hududida gi sug'oriladigan maydonlarda jahon paxta hosilining 10-20 foizini beradi. Ammo sug'orish tufayli yilning ko'p qismida suvlari yetib bormaydi, bu esa ikkinchi dengizning qurib ketishiga olib keldi. Dunyodagi eng yirik kanal – Qoraqum Amudaryo suvining 45% ga yaqinini oladi; Shuningdek, O'zbekiston hududini sug'oradigan Amu-Buxoro mashina kanali ham Amudaryodan chiqariladi. Bu kanallar va Amudaryo bo'ylab (Turkmanistonda) ulkan paxta va bug'doy maydonlari cho'zilgan. 1950-yillar boshida Nukus shahridan boshlanib, O'zboy kanalidan foydalanishga mo'ljallangan Bosh Turkman kanalini qurish ham ko'zda tutilgan edi, lekin bu reja amalga oshirilmagan. 2020-yildan daryoning Afg'oniston shimolidan o'tgan qismida ulkan Qo'shtepa kanali qurilmoqda; uning uzunligi 285 km, eni 100 m bo'lishi taxmin

qilinmoqda^[5]. Tojikiston eksport qiladigan elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun daryo va uning irmoqlarida (ayniqsa, Tojikistonda) ko'plab to'g'onlar qurilgan. Bundan tashqari Amudaryo havzasida joylashgan mamlakatlarning suvga bo'lgan talabini e'tiborga olgan holda mavjud suv boyliklarini o'zaro taqsimlaydi (chunki har yili havzalarda turli miqdorda suv resurslari vujudga keladi). O'rta Osiyo davlatlari va Qozog'iston suv xo'jaligini muvofiqlashtirish davlatlararo komissiyasi ham Amudaryodan foydalanish bilan shug'ullanadi. Bu daryodan faqatgina sug'orishda foydalaningina qolmay gidroenergetika resurslaridan ham keng miqyosda fodalaniadi. Daryoning umumiy gidroenergetika resurslari 63,2 mln. kVt ni tashkil qiladi. Havza bo'yicha mazkur gidroenergetika resurslarining 29,8% Panj, 38% Vaxsh, 5,6% Kofarnihon, 3,0% Surxondaryo, 1,0% Qashqadaryo, 5,4% Zarafshon, 17,1% Amudaryo havzalariga to'g'ri keladi. Hozirgacha Amudaryo havzasidagi gidroenergetika resurslarining faqat 2%dan ziyodroq qismi amadda foydalanilmoqda. Ishga tushirilgan gidroinshootlarning eng kattasi Vaxsh daryosining Pulisangin darasida qurilgan Norak suv ombori va GESdir. 60-yillargacha Amudaryoda suv transporti keng yo'lga qo'yilgan edi. Lekin, keyingi yillarda Chorjo'y – Qo'ng'iro't temir yo'lini qurish hamda avtomobil yo'llari tarmoqlarining rivojlanishi, ayni vaqtda daryoning sayozlanishi natijasida umumiy yuk tashishda Amudaryo suv transportining hissasi keskin kamayib ketdi. Turkmanoboddan muntazam yuk tashiladi.

Amudaryo yaqinida Urganch, Nukus, Termiz shaharlari, shuningdek, Amudaryo qo'riqxonasi joylashgan. Ikkinchi eng yirik daryo hisoblanib Sirdaryo havzasida obikor dehqonchilik juda qadimdan mavjud bo'lgan. Lekin, 20-asrning 2 o'n yilligigacha o'zlashtirilgan yerlar, asosan, Farg'ona vodiysi bilan Toshkent vohasida bo'lgan. Bu yerlar Sirdaryoning Farg'ona vodiysidagi irmok/shridan suv oladigan Andijonsoy, Shaqrixonsoy, Quvasoy, Marg'ilonsoy, Oltiariqsoy hamda Chirchiq va Oqangaron daryolaridan chiqarilgan Zahariq, Qorasuv, Bo'zsuv, Tanachibuqa va Yordon kabi qadimiy kanal va ariqlar orqali suv olgan. 1920-yilda Sirdaryo havzasida hammasi bo'lib 1200 ming ga chamasida yer sug'orilgan. Sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirish va ularning suv ta'minotini yaxshilash borasida keyingi 60 yil davomida katta suv xo'jalik qurilish ishlari amalga oshirildi. Andijonsoy, Shahrixonsoy, Qorasuv va Bo'zsuv singari qad. kanallarni yangilash va kengaytirish bilan birga Sirdaryo havzasida murakkab gidrotexnik inshootlar sistemasiga ega bo'lgan Katta Farg'ona, Shim. Farg'ona, Jan. Farg'ona, Katta Andijon

kanallari, Oxunboboyev nomli kanal kabi o'nlab yirik va yuzlab kichiroq ariqkanallar qazildi. Natijada Sirdaryo havzasidagi ariqkanallarning umumiy uzunligi qariyb 65 ming km ga yetib bordi. Bu kanallarga muttasil suv berib turish uchun Sirdaryo va uning irmoqlarida juda ko'p to'g'on va gidrotugunlar qurilgan. Norin daryosidagi Uchqo'rg'on, Qoradaryodagi Kampirravot, Teshiktosh, Kuyganyor, Sirdaryodagi Farhod Qizilo'rda va G'azali gidrouzullari shular jumlasidandir. Yildan yilga tobora ko'proq yerlar sug'orilishi natijasida ayrim pastqam joylarni sho'r va botqoq bosa boshladi. Ana shunday joylarning zaxini qochirish va yig'ilgan sizot suvlar bilan sug'orishdan ortgan partov suvlarni daryolarga tashlash maqsadida Sirdaryo havzasida 300 dan ortiq kollektor va zovurlar ham qazilgan (32 ming km). Eng yirik kollektorlar Shim. Bag'dod, So'xIsfara, Sarijo'ga, Sariqsuv, Yozyovon, Ulugnor, Zambarko'l, Sho'rko'l, Asaka, Sho'ro'zak, Markaziy Mirzacho'l va Qorasuv. Suv xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida (1970-yillar oxirida) Sirdaryo havzasida sug'orilayotgan yerlar maydoni 2,4 mln.ga dan ortib ketdi (2001-yilda 2887 ming ga). Sirdaryo havzasidagi sug'oriladigan yerlarda, asosan, paxta ekiladi. Shuningdek, don, sabzavot, meva va poliz ekinlari ham yetishtiriladi. Norin daryosida ulkan To'xtag'ul suv ombori, Qoradaryoda Andijon suv ombori, Chirchiqda Chorvoq suv ombori, Sirdaryoda Qayroqqum suv ombori qurildi, Katta Namangan va Qizilqum kanallari kabi magistral sug'orish kanallari qazildi. Sirdaryo ayniqsa, uning baland tog'lardan oqib tushadigan irmoklari katta gidroenergetika zaxirasiga ega. Ularning umumiy potensial gidroenergetika zaxirasi kariyb 22 mln. kVt. Bu havzada 63 GES qurilgan. Ularning umumiy quvvati 2,8 mln. kVt. Sirdaryo va uning irmoqlari ko'plab qishloq va shaharlarni, Farg'ona vodiysi, Toshkent, Chirchiq, Bekobod va Kizilo'rda kabi shaharlardagi yirik zavod va fabrikalarni, ko'p sonli sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlaydi. Daryoning uning qayirida qoldiq o'zanlar o'rnida hosil bo'lgan ko'pgina ko'llar bilan birgalikda O'zbekiston va Janubiy Qozog'istonda baliqchilikning rivojlanishidagi ahamiyati ham katta. Bu sohada, ayniqsa, Sirdaryoning quyi oqimi va, shuningdek, Bekobod, Dalvarzin va Arnasoy atrofidagi ko'llar muhim, Sirdaryoning quyi qismi baliqchilikda alohida o'rin tutadi, u ilgari Orol dengizida ovlanadigan osyotr, moybaliq, so'vyan, to'rtta baliq, sazan va vobla kabi qimmatbaho baliklarning asosiy urchish joylaridan biri edi. Sirdaryoda 40 dan ortiq baliq turi yashaydi.

Xulosa: Bugungi kunda suv resurslaridan foydalanish eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanmoqda. Hozirda suvdan nafaqat sug'orishda balki boshqa tarmoqlarda ham foydalanilayotganligi hisobga olinib barcha tarmoqlarda optimal foydalanish talab etilmoqda. Atrof muhitning ifloslanishi va sanoat korxonalarida chiqayotgan turli xildagi gazlar havoning isishiga bu esa suv manbai bo'lgan baland tog'lardagi qorlarning erta erib ketishiga sabab bolmoqda. Shu sababli sev resurslaridan samarali foydalanish talab etilmoqda. Sug'orish masalalarida zamonaviy intensiv tomchilatib sug'orish, sanoat korxonalarida ham optimal miqdorda foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valiyev X. I. Va boshqalar. Suv resurslaridan mukammal foydalanish. Toshkent 2008y
2. Saloxiddinov A.T., Ashirova O.A. Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish. Toshkent 2020y.
3. Shuls V. L., Mashrapov R., o'rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;
4. P. Baratov, M. Mamatqulov, A. Rafiqov o'rta osiyo tabiiy geografiyasi
5. Barayev. F. A., Serikbayev B.S., Bazargov R.X, G'ulomov S.B, Shaymanov N.O., Mamasoliyev A.B. Suv resurslari va suvdan tejamli foydalanish